XALQ DEPUTATLARI MUBORAK TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 9 - avgust VI-45-128-4-64-K/22 Muborak tuman hokimligi

Muborak tuman mahalliy byudjetining 2-chorakda qo‘shimcha tushgan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan Muborak tuman mahalliy byudjetining 2-chorakda qo‘shimcha tushgan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida tuman hokimligi moliya bo’limi boshlig’i B.Sodiqovning takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Muborak tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Muborak tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorakda qo‘shimcha tushgan mablag‘lari xisobidan birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashrifi doirasida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash, ijtimoiy va iqtisodiy soxalarni rivojlantirishga, tumanning infrastrukturasini yaxshilashga yo‘naltirish ko‘zda tutilayotgan mablag‘lar bo‘yicha takliflari 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Safarov), tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (B.Sodiqov) bilan birgalikda:

bir xafta muddatda mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimining qarorlari loyihalarini tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risda”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin;

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin;

3. Tuman g‘aznachilik bo‘limi boshlig‘i (A.Nurmatov) ajratiladigan mablag‘larni o‘z vaqtida harajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Safarov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.O.Aripov**

Xalq deputatlari Muborak tuman Kengashining
2022 yil 9 avgustdagi
VI-45-128-4-64-K/22-son qaroriga
1-ilova

Muborak tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-choragida qo‘shimcha tushgan mablag‘larni yo'naltirish to'g‘risida

№	Tadbirlar nomi	Mablag‘ yo'naltirishning maqsadi	Ming so‘mda
1	Tuman hokimligiga	Tuman hokimligiga E-Qaror harajatlari uchun 15.0 mln so‘m va tuman Saxovat va ko‘mak «Temir daftari» jamg‘armasiga 35,0 mln so‘m yo‘naltirilsin	50,0
Jami			**50,0**

Byudjet tashkilotlariga ajratilgan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjatlariga asosan o‘zgartirish kiritilishi mumkin.